

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA UNDOV SO'ZLARNING QO'LLANILISHI

Axmedov Salohiddin Sahobiddin o'g'li

Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va gumanitar fanlar kafedrasi o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21885484>

Annotatsiya

Mazkur maqolada buyuk mutafakkir Alisher Navoiy asarlarida undov so'zlarning qo'llanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Undov so'zlarning fonetik, semantik va stilistik xususiyatlari, shuningdek, ularning badiiy matnda ifoda vositasi sifatidagi o'rni ko'rib chiqiladi. Maqolada undov so'zlar orqali ifodalanayotgan tuyg'ular, kechinmalar va muallif nutqidagi emotsional yuklamalar o'rganiladi. Navoiy ijodidagi undovlarning poetik va funksional vazifalari misollar asosida tahlil qilinadi va ularning o'zbek adabiy tilining shakllanishidagi o'rni yoritiladi.

Kalit so'zlar: *til tarixi, undov so'zlar, semantika, emotsional, funksional vazifa, lisoniy birlik, nutq, grammatik*

Kirish

Har bir xalqning, millatning adabiyotini yuksak cho'qqilarga ko'taradigan daho ijodkorlari, istedodli shoir va yozuvchilari bo'ladi, albatta. Iqtidorli qalam sohiblarining ijodi esa hech bir o'lchamga sig'maydi, har qanday andoza ham bir chetda qoladi. Ular yaratgan nodir va o'lmas asarlar qancha vaqt o'tmasin eskirmaydi, o'zining mazmunini, g'oyaviy-badiiy ahamiyatini aslo yo'qotmaydi. Alisher Navoiy biz yuqorida ta'kidlagan ana shunday noyob fazilatlariga ega buyuk ijodkor hisoblanadi.

Navoiy asarlari yaxlit tizim sifatida hayot qomusiga o'xshaydi, go'yo. Birinchi Prezidentimiz ta'biri bilan aytadiga bo'lsak, "Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning g'ururi, sha'nu-sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkoridir. Ta'bir joiz bo'lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so'zlovchi biron-bir inson yo'qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e'tiqod bilan qaramasa" (Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy: qomusiy lug'at. Toshkent.: Sharq, 2016-yil, 5-bet).

Mavzuga oid adabiyotlarning sharhi

Undovlar—so'zlovchining his-hayajoni, buyruq-istagi, ta'kid va javobi kabi ma'nolarini ifodalaydigan so'zlardir. Undovlar ayrim so'z sifatida biron predmetni yoki uning belgisini ifodalamaydi, boshqa so'zlar bilan grammatik jihatdan bog'lanmaydi. Undov so'zlarning ma'nosi nutqdagi ma'lum nutq sharoitida anglashiladi. Shu jihatdan undovlar boshqa so'z turkumlaridan ajralib turadi.

Til tarixiga oid ilmiy manbalarda esa quyidagi fikrlarni uchratishimiz mumkin: Yozuv yodgorliklarda qo'llangan undovlar juda kam sonni tashkil etadi. Eski o'zbek tilidagi undovlarning bir guruhi so'zlovchining tinglovchiga murojaati, xitob qilish, fikmi jalb etish kabi ma'nolarni ifodalaydi. O'qib-izlanishlarimiz natijasida Navoiyning o'z asarlarida undovlardan mohirona foydalanganligining guvohi bo'ldik.

Tahlil va natijalar

Navoiy o'z asarlarida undovlardan mohirona foydalanganligini quyidagi misollar orqali ham ko'rib chiqishimiz mumkin:

Lahza-lahza bosh chekar ishqim sharori, ey rafiq

Alamon, shavqi muhabbat shu'lasidin alamon.

Alamon— bu yerda qutqarish haqida iltijo, yordam ma`nolarini ifodalagan. Alamon so`ziga Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug`atida quyidagicha ta`rif berilgan: Alamon—undov so`z; qutqarish haqida iltijo, yordam:

Yoki,

Alloh-alloh, ne nuri bolo bu,

Yo`q edi ofarinish illo bu.

Alloh-alloh, ne ot erur bu,

Ne poku xujasta zot erur bu,

Alloh-alloh— yuqoridagi baytda ey ajabo, hayrat, taajjub ma`nolarini ifodalovchi undov so`z sifatida qo`llanilgan.

Alloh-alloh so`ziga Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug`atida quyidagicha ta`rif berilgan: Ey ajabo! Hayrat, taajjub ma`nolarini ifodalaydigan undov.ⁱ (80-bet).

Alo, to quyosh zarfishon olg`usi,

Sahob ilgi gavharfishon o`lg`usi.

Alo, toki har shahki kom istagay,

Jahon mulki taxtin maqom istagay.

Alo—ushbu baytda esa hoy, ogoh bo`l, eshit ma`nolarini ifodalovchi buyruq-xitob undovlari qo`llanilgan.

Alo so`ziga Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug`atida quyidagicha ta`rif berilgan: Hoy, ogoh bo`l, eshit (undov). (80-bet).

Ko`ngluma as`hob zulmi janbida, vo hasrato,

Charh neshin marhami rohat kelurni bilmadim.

Vo—ey ma`nosida,

To payopay bo`lg`ay ul aftodalarg`a dastgir,

Umru davlat yo rab, afzun qil damodam shohima

Yoki

Jurm Navoiyni ko`p etmish malul,

Yo rab, o`zung tavba berib qil qabul.

Yo—ey, hoy ma`nosida qo`llanilgan.

Vo//yo so`zlari yuqorida keltirilgan uchala baytda ham hozirgi o`zbek adabiy tilidagi chaqirish, da`vat etish ma`nosini bildiruvchi **ey** undov so`zining ma`nosida qo`llanilgan.

Vo//yo so`zlariga Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug`atida quyidagicha ta`rif berilgan: vo-ey undov so`z, yo-ey, hoy (undov). (374-529-bet).

*Zamiru ra`yi poyingdin **darig`o**!*

*Fig`oni dardnokingdin **darig`o**!*

**Darig`o**—keltirilgan ushbu baytda eh afsus, hay attang ma`nolarni bildiruvchi his-hayajon undovlari qo`llanilgan.

*Darig`o* so`ziga Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug`atida quyidagicha ta`rif berilgan: eh afsus, hay attang ma`nolarini bildiruvchi undov so`z. (461-bet).

Ul mo`rg`a tushsa bo`yla do`zax,

Ovax, nechuk etgusidir, **ovax**.

Ovax—afsus, oh, ey voh kabi achinish ma'nolarini bildiruvchi his-hayajon undovlari ma'nosida qo'llanilgan.

Ovax so'ziga Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'atida quyidagicha ta'rif berilgan: afsus, oh, ey voh. (499-bet).

La'lning bir-bir hadisi shahddek shirin erur,

Ori-ori doimo gulbargidindur angubin.

Ori-ori— hozirgi o'zbek adabiy tilidagi ha-ha, to'g'ri, xuddi shunday ma'nolarini ifodalovchi his-hayajon undovlari ma'nosida qo'llanilgan.

Ori-ori so'ziga Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'atida quyidagicha ta'rif berilgan: ha-ha, to'g'ri, xuddi shunday. (525-bet).

Xulosa va takliflar

Mavzu ko'lami jihatidan Navoiy asarlari nihoyatda rang-barang bo'lib, unda xalq hayotining barcha jabhalari, insoniylikka xos bo'lgan fazilatlar va illatlar, qadriyatlar va tuyg'ular shoir tomonidan qalamga olinadi. Navoiy asarlari bamisoli bitmas-tuganmas xazinaning o'zginasi. Shoir asarlari bilan qanchalik yaqindan tanishib, chuqur o'rganib borar ekanmiz biz ushbu xazinaning inju-durlariga ega bo'lib boraveramiz. Shoir asarlarida ilgari surilgan g'oyalar o'zlikni anglash, shaxsning axloqi va kamolotiga xizmat qilar ekan ularni makammal ravishda o'qib-o'rganish, o'rgatish, targ'ib-u tashviq qilish muhim va zaruriy vazifa bo'lib hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati". To'rt tomlik, I tom. Toshkent.: Fan, 1983-yil
2. "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati". To'rt tomlik, II tom. Toshkent.: Fan, 1983-yil
3. "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati". To'rt tomlik, III tom. Toshkent.: Fan, 1984-yil
4. "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati". To'rt tomlik, I tom. Toshkent.: Fan, 1985-yil
5. Sirojiddinov Sh. **Alisher Navoiy: qomusiy lug'at.** Toshkent.: Sharq, 2016-yil, 5-bet